

SIYOSIY VA PARLAMENTLARARO ALOQALAR JADAL TUS OLGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-dekabr kuni Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari rahbarlarining uchinchi uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri U Von Shik boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chhe Myonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi alohida strategik sheriklikni, jumladan, parlamentlar hamkorligi orqali yanada rivojlanirish masalalari muhokama qilindi.

Siyosiy va parlamentlararo aloqalar jadal tus olgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi hamda Koreyadan, birinchi navbatda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning soni ortib bormoqda.

Gumanitar va ta‘lim almashinuvlari kengaymoqda. O‘zbekistonda Koreya yetakchi universitetlarining to‘rtta filiali, shuningdek, mamlakatimiz hududlaridagi professional ta‘lim markazlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Infratuzilmani rivojlantirish, transport va logistika, nodir metallar va o‘ta muhim xomashyoni qayta ishlash, shuningdek, qonun ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish va boshqaruvda ilg‘or yechimlarni joriy etish bo‘yicha kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish qo‘llab-quvvatlandi.

Parlamentlararo hamkorlik dasturini ishlab chiqish hamda parlamentlardagi “do‘stlik guruhlari” ishini faollashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Bo‘ljak oliy darajadagi, jumladan, “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” sammiti doirasidagi tadbirlarning kun tartibini puxta tayyorlash zarurligi qayd etildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN YAPONIYADA BO‘LADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18-20-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Tokio shahrida Yaponiya Imperatori Naruxito, Bosh vazir Sanae Takaichi, Parlament rahbariyati, hukumat a‘zolari, siyosiy partiyalar vakillari va yetakchi universitetlar rektorlari bilan uchrashuvlar va muzokaralar o‘tkazish rejalashtirilgan.

Kun tartibidan O‘zbekiston — Yaponiya strategik sheriklik munosabatlari va ko‘p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish hamda rivojlantirish masalalari o‘rin olgan.

Ishbilarmonlik dasturi doirasida Yaponiyaning yirik kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokidagi uchrashuvlar va tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish hamda investitsiya

loyihalarini ilgari surish masalalari atrof-licha muhokama qilinadi. Ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to‘plami qabul qilinishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti, shuningdek, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti davlat rahbarlarining birinchi samitida ishtirok etadi. Tadbir doirasida “yashil” iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot, o‘zaro bog‘liqlik va mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash hamda inson resurslarini rivojlantirish kabi ustuvor sohalarda hamkorlik istiqbollari muhokama qilinadi.

Sammit yakunlari bo‘yicha Tokio deklaratsiyasini qabul qilish rejalashtirilgan.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – YAPONIYA: STRATEGIK SHERIKLIK CHEGARALARI KENGAYMOQDA

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18-20-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi hamda “Markaziy Osiyo+Yaponiya” muloqotining oliy darajadagi sammitida ishtirok etadi.



1992-yil 26-yanvarda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish istiqbolli tashabbusi ilgari surildi. Prezidentimiz takliflarni qo‘llab-quvvatlab, ularni sifatli va tizimli amalga oshirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

tayani, Toshkent va Tokio bugungi kunda siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiyalar, innovatsiyalar, ta‘lim, madaniyat, turizm va mintaqaviy shakllardagi keng ko‘lamli hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqda.

Davomi 2-betda

Inson qadri uchun

Bu sohada umumiy ishlab bo‘lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o‘z o‘rnini topadi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

ANIQ, MANZILLI VA TIZIMLI ISHLAR IJTIMOY HIMOYADA NATIJADORLIKNI TA‘MINLAYAPTI

Bugun jamiyatimizda har bir inson taqdiriga alohida yondashilyapti. Bu hech bir fuqaro davlat e‘tibori, g‘amxo‘rligidan chetda qolmayotgani, yolg‘iz keksalar, yetim bolalar, nogironlar, umuman, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj barcha qatlami moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlanayotganida yaqqol ko‘rinib turibdi.

Ijtimoiy himoya jamiyatda barqarorlik va adolati ta‘minlashning muhim asosi. Uning mutlaqo yangi tizimi yaratilgani, ijtimoiy yordamlarning aniq, maqsadli va manzilli bo‘layotgani odamlarning bu boradagi islohotlarga ishonchi, umidini orttirdi. Ota-ona mehriга muhtoj, nogiron va yetim bolalar bilan ishlashda yangi tizim joriy etildi.

Har qanday tizim o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, albatta. Jumladan, ijtimoiy himoyaning yangi tizimi ustida ham uzoq ishlendi, atroflicha o‘rganishlar qilindi. Davlatimiz rahbarining taklif va tashabbuslari bunda birlamchi ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, ijtimoiy himoya

tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdimotida, videoselektor yig‘ilishlarida Prezidentimiz tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilli va natijadorligini ta‘minlash zarurligini qayta-qayta ta‘kidlaydi. Shu yilning 19-noyabr kuni kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandlegini ta‘minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham ehtiyojmand oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish alohida yo‘nalish sifatida belgilandi.

Davomi 3-betda

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNI HIMOYA QILISH BO‘YICHA YANGI MEXANIZMLAR JORIY ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev fuqaro va tadbirkorlarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish masalalariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda o‘zining 30 yilligini nishonlayotgan Konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar bajarildi. Jumladan, 2021-yilda Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilinib, samarali konstitutsiyaviy nazorat tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud o‘z vakolatlarini to‘laqonli amalga oshirishini ta‘minlash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib, mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish taqozo etilmoqda.

Taqdimotda bu boradagi takliflar ko‘rib chiqildi. Jumladan, Konstitutsiyaviy sud tomonidan har yili mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylilikni

mustahkamlash bo‘yicha taqdim etib boriladigan taklif va tavsiyalarni amalga oshirishning samaradorligi oshiriladi.

Bunda Konstitutsiyaviy sud tomonidan fuqaro va tadbirkorlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartib-taomillari maqbullashtiriladi, sansalorliklar bartaraf etiladi.

Shuningdek, “konstitutsiyaviy shikoyat” instituti samaradorligini oshirish va murojaat etuvchilarning sud himoyasini ta‘minlash maqsadida sud ishida qo‘llanilgan qonun Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan taqdirda tegishli sud hujjatini qayta ko‘rib chiqish tartibini joriy etish taklif qilindi.

Taqdimotda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish orqali aholiga qulaylik yaratish masalalari ham muhokama qilindi.

Xususan, Konstitutsiyaviy sud majlislarida masofadan onlayn tarzda ishtirok etish, sud majlislarini internet orqali translyatsiya qilib borish, vazirlik va idoralar o‘rtasida elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Konstitutsiyaviy sudning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy sudlari bilan hamkorlikni mustahkamlash muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Sudning Osiyo konstitutsiyaviy sudlari assotsiatsiyasiga raisligi doirasida mamlakatimizda

O‘ZA

HUDUDLARDA IJTIMOY XIZMATLAR KO‘LAMINI KENGAYTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish hamda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan takliflar bilan tanishdi.

Kambag‘al hamda kambag‘allikka tushish xavfi bo‘lgan oilalarni aniqlash, ularga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam va xizmatlarni yagona tizim asosida aholining real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish yo‘nalishidagi ishlar ko‘rib chiqildi.

O‘tgan davrda Ijtimoiy himoya yagona reyestri doirasida 1,8 million oilaning ijtimoiy holati baholalanib, 739 ming oila, shu jumladan, kambag‘al hamda kambag‘allik chegarasidagi oilalar reyestrga kiritildi. Ularga nafaqa va moddiy yordamlar tayinlandi.

Endilikda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida Ijtimoiy himoya yagona reyestri hamda Kambag‘al oilalar reyestri negizida Ijtimoiy reyestr yuritiladi va unda oilalar ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib alohida toifalarga — davlat ta‘minotidagi oilalar, kambag‘al oilalar hamda kambag‘allik chegarasidagi oilalarga ajratiladi, har bir toifaga mos yordam va xizmatlar ko‘rsatiladi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari aholining daromad darajasi va bandlek imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda differensial yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Xususan, ayrim toifadagi imkoniyat cheklangan oilalar uchun bandlek talab etmagan holda ijtimoiy

yordamlar berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi, “mahalla yetitilgi”ga mehnat qilish imkoniyati cheklangan va og‘ir hayotiy vaziyatdagi oilalarni Ijtimoiy reyestrga kiritish huquqi beriladi.

Shuningdek, reyestrga kiritilgan oilalarning daromadini oshirish, sog‘liqni saqlash, bandlek, uy-joy va boshqa yo‘nalishlarda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, mehnatga layoqatli a‘zolari bandlekka jalb qilish hamda tadbirkorlikka yo‘naltirish choralari ko‘riladi.

Hududlarda ehtiyojmand aholiga kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini ko‘rsatishni kengaytirish maqsadida hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklif etildi. 2026-2027-yillarda 20 ta shunday markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Markazlarda qarab turish, parvarishlash, abilitatsiya, reabilitatsiya va ta‘lim bilan bog‘liq kompleks xizmatlar ko‘rsatiladi.

Markazlar orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj fuqarolar hamda yolg‘iz shaxslarni qamrab olish, kunduzgi xizmatlar hisobiga ularning ijtimoiy muassasalarga doimiy joylashtirilishini qisqartirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, xizmatlardan foydalanish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron yo‘llanmalarini joriy etish hamda ko‘rsatlayotgan

xizmatlar monitoringini ta‘minlash belgilangan. Prezidentimizga 2026-2030-yillarda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan strategiya to‘g‘risida axborot berildi.

Strategiya bolalar uchun zo‘ravonlikdan holi muhit yaratish, zo‘ravonlik xavfi ostidagi bolalarni barvaqt aniqlash hamda jabrlanuvchi yoki guvoh bo‘lgan bolalarga kompleks xizmatlar ko‘rsatishni asosiy maqsad qilib olgan.

Mazkur hujjat doirasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, xavf ostidagi bolalar bilan erta bosqichda ishlash, bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy, psixologik, ta‘lim va huquqiy xizmatlarni taqdim etish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.

Strategiyada bolalar bilan ishlashda ijtimoiy yondashuvga asoslangan kichik hajmli, ochiq formatdagi markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, har bir bola bo‘yicha individual ish rejalarini shakllantirish hamda bolaning ta‘lim olishi va jamiyatga integratsiya qilinishiga qaratilgan choralar nazarda tutilgan.

Shuningdek, bolalarning huquqiy himoyasini ta‘minlash maqsadida protsessual harakatlarda bolalar manfaatlarini kafolatlash, bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni maxsus

O‘ZA

Boshlanishi 1-betda

Yaponiya sanoat va energetika infratuzilmasini modernizatsiyalash, raqamli transformatsiya, barqaror taraqqiyot, ta’lim va fan, madaniy-gumanitar almashinuv masalalarida an’anaviy ravishda muhim strategik sherik bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik samarali va jadal rivojlanmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi muloqot rivojida tub bulirish yasadi. Ushbu tashrif yirik qo‘shma iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar loyihalarni amalga oshirishga turtki bo‘ldi hamda uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan hamkorlik vektorini belgilab berdi. Xalqaro maydonda O‘zbekiston va Yaponiya xalqaro tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilib, bir-birining pozitsiyalarini qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Hamkorlik yillarida O‘zbekiston Yaponiyaning BMT organlariga nomzodini 40 marta dan ortiq qo‘llab-quvvatlagan, Tokio esa BMT Bosh Assambleyasining O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan qator rezolyutsiyalari, jumladan, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud, ma’rifat va diniy bag‘rikenglik, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlarning roli to‘g‘risidagi rezolyutsiyalar hammuallifi bo‘lgan.

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi parlamentlararo hamkorlik ham ikki tomonlama munosabatlarning strategik xususiyatidan dalolat beradi. Ikki mamlakat parlamentlarida do‘stlik guruhlari tashkil etilgan, O‘zbekiston — Yaponiya parlamentlararo forumi yig‘ilishlari muntazam o‘tkazilmoqda, o‘zaro tashriflar almashilmoqda, uchrashuvlar va onlayn muzokaralar bo‘lib o‘tmoqda.

Vazirliklararo hamkorlik ham yuqori darajani namoyish etmoqda. 2002-yildan buyon ikki mamlakat tashqi siyosat mahkamalari o‘rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 19-raundi bo‘lib o‘tdi.

2025-yil 25-avgust kuni O‘zbekiston va Yaponiya tashqi ishlar vazirlari darajasida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi strategik muloqot ham bu borada muhim voqea bo‘ldi. Ushbu yangi format o‘zaro hamkorlikning uzoq muddatli xususiyatini va tomonlarning barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga tayyorligini ta’kidladi.

Tashqi ishlar vazirlarining muntazam muloqotlari, telefon orqali so‘zlashuvlari, xalqaro maydonlardagi uchrashuvlari va o‘zaro tashriflari ikki va ko‘p tomonlama masalalar bo‘yicha pozitsiyalarini muvofiqlashtirishga, shuningdek, boshqa yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirishni faollashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonning Yaponiyadagi faxriy konsullari davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ular ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy tashabbuslarni ilgari surishda faol ko‘maklashmoqda.


O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanib, sanoat, energetika, kommunikatsiyalar, infratuzilma, innovatsiyalar,

O‘ZBEKISTON – YAPONIYA: STRATEGIK SHERIKLIK CHEGARALARI KENGAYMOQDA



transport va “yashil iqtisodiyot” sohalarini qamrab olgan. Mamlakatlar o‘rtasidagi savdo eng qulay rejimda amalga oshirilmoqda, buning

Bugungi kunda mamlakatimizda Yaponiya kapitali ishtirokida 84 ta qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda. Yaponiyaning neft-gaz, kimyo, mashinasozlik, logistika, ta’lim va turizm sohalaridagi 13 yirik kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiyadan o‘tgan.



natijasida tovar ayirboshlash hajmi so‘nggi yillarda barqaror o‘shishni namoyish etmoqda.

2024-yilda Nagoya shahrida O‘zbekiston — Yaponiya savdo uyi ochildi. Bu Yaponiya tomonining O‘zbekiston bilan savdo aloqalarini kengaytirishga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Yaponiya va Yaponiya — O‘zbekiston qo‘mtalarining qo‘shma majlislari iqtisodiy loyihalarni muvofiqlashtirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

— Respublika neurologiya va insult markazini qurish va jihozlash uchun 150 million dollarlik qarz bitimi imzolandi.

O‘zbekiston — Yaponiya munosabatlarning madaniy-gumanitar yo‘nalishi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yigirma yildan ortiq vaqtdan buyon O‘zbekiston — Yaponiya do‘stlik jamiyati, Fukushima — O‘zbekiston va Yaponiya — O‘zbekiston uyushmalari faol ishlamoqda. Toshkentda o‘rnatilgan “Xirosima tinchlik toshi” va poytaxtimiz markazida barpo etilgan Yapon bog‘i o‘zbek va yapon xalqlari o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik ramziga aylandi.

O‘zbekistonda yapon madaniyati festivallari, yapon kinosi namoyishlari, gastrollar va ko‘rgazmalar muntazam o‘tkazib kelinmoqda. O‘z navbatida, O‘zbekiston Yaponiyada o‘zbek taomlari va milliy liboslaridan tortib, musiqa va raqs san’atigacha bo‘lgan madaniy an’analarni keng namoyish etadi. Bunday almashinuv ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikning o‘ziga xos asosini shakllantiradi, o‘zaro hurmat muhitini yaratadi va uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlaydi.

Zamonaviy madaniy loyihalar gumanitar muloqotning tashrif qog‘oziga aylandi. 2022-yil aprel oyida Tokioda “Ipak yo‘li ruhi — do‘stlik ko‘prigi” yorqin tadbiri bo‘lib o‘tdi, 2024-yilda esa Yaponiyaning “Yapon marvaridi” ansambli an’anaviy “Boysun bahori” festivalida uchinchi o‘rinni egalladi.

“O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanib, sanoat, energetika, kommunikatsiyalar, infratuzilma, innovatsiyalar, transport va “yashil iqtisodiyot” sohalarini qamrab olgan. Mamlakatlar o‘rtasidagi savdo eng qulay rejimda amalga oshirilmoqda, buning natijasida tovar ayirboshlash hajmi so‘nggi yillarda barqaror o‘shishni namoyish etmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalashda Yaponiya moliya institutlari strategik ahamiyatga ega. 2025-yil yanvar oyida Toshkentda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan milliy tibbiyotni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ladigan zamonaviy loyiha

Ta’lim gumanitar almashinuvning eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistondagi 7 ta oliy o‘quv yurtida 2,5 mingdan ziyod talaba yapon tilini o‘rganmoqda. Mamlakatda Inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston — Yaponiya markazi,



Yaponiyaning JDS stipendiyali rivojlanish dasturi, Tokio, Nagoya, Sukuba, Keyo va Toyoxashi universitetlari bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonlik

400 dan ortiq talaba JDS dasturi bo‘yicha stipendiyalarni qo‘lga kiritdi, 2,5 ming mutaxassis Yaponiyada amaliyot o‘tab, malaka oshirdi. Amaldagi dasturlar, o‘qituvchilar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan, ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari rektorlari forumlari o‘tkazilmoqda.

Qadimgi tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, qishloq xo‘jaligi va iqlim jarayonlari bo‘yicha qo‘shma ilmiy tadqiqotlar qilinmoqda.

Yaponiya O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirishni moliyaviy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlamogda. Xususan, tibbiyot muassasalarini jihozlash, mutaxassislar tayyorlash va vakcina bilan ta’minlashga 60 million dollardan ziyod mablag‘ berilgan. Yaponiyalik 100 dan ortiq ko‘ngilli O‘zbekistonda ishladi, o‘zbekistonlik 200 dan ortiq shifokor Yaponiyada amaliyot o‘tadi.

Ikki tomonlama munosabatlarda mintaqalararo diplomatiya tobora muhim o‘rin egallamoqda. Bugungi kunda Rishon va Maydzuru, Toshkent va Nagoya, Samarqand viloyati va Nara prefekturasi o‘rtasida do‘stona aloqalar o‘rnatilgan. Bunday hamkorlik doirasida Yaponiyada Samarqand kunlari va Nagoyada madaniy tadbirlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

Yaponiyaliklarning O‘zbekiston madaniyati va tarixiga qiziqishi ortib borayotgani tufayli turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik faollashmoqda. Mamlakatimizga yaponiyalik sayyohlar oqimi izchil ortib bormoqda. Bunga aviaqatnovlar kengayishi, madaniy turizmning faol targ‘ib qilinishi, qulay infratuzilma rivojlantirilishi o‘z hissasini qo‘shmoqda.

O‘zbekistondagi buddaviylik yodgorliklari — Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Termiz va uning atrofidagi ibodatxona majmualari yaponiyalik sayyohlarda alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Yapon olimlarining tadqiqot ishlari tufayli yodgorliklar xalqaro madaniy maydonga olib chiqildi va butun dunyodan sayyohlar va mutaxassislarni jalb qilmoqda.

Bu yil Osaka shahrida bo‘lib o‘tgan EKSPo — 2025 ko‘rgazmasidagi “Bilimlar bog‘i, kelajak jamiyatining laboratoriyasi” O‘zbekiston pavilyoni yapon jamoatchiligining O‘zbekistonga e’tiborining yana bir yorqin tasdig‘i bo‘ldi. Mamlakatimiz milliy pavilyoni eng yorqin obyektlardan biri sifatida e’tirof etilib, oltin medal bilan taqdirlandi. Uning doirasida namoyish etilgan O‘zbekiston milliy simfonik orkestrining ikki mamlakat do‘stligiga bag‘ishlangan “Samoviy raqs” jahon premyerasi yaponlar qalbini zabt etdi.

Davlatimiz rahbari o‘z tashrifi davomida birinchi oliy darajadagi sammitda mezbonlik qiladigan “Markaziy Osiyo — Yaponiya” muloqoti O‘zbekistonning mintaqaviy ustuvorliklari tizimiga uyg‘un keladigan formatlardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy jipslashuv darajasi yuksalayotganidan dalolat beradi.

Muloqotni tashkil etish tashabbusi ilk bor Yaponiya tashqi ishlar vaziri Yoriko Kavaguchi tomonidan 2004-yil 24-avgustda Toshkentga tashrifi chog‘ida ilgari surilgan edi. O‘shanda mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, islohotlar va ijtimoiy rivojlanishga ko‘maklashish, ichki mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash, Markaziy Osiyoning qo‘shni mintaqalar va xalqaro hamjamiyat bilan sherikligini rivojlantirish, mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha hamkorlik qilish ustuvor maqsadlar qatorida ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Bugungi kunda muloqot ishonchli hamkorlik, barqaror rivojlanishning dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun barqaror platformaga aylandi.

Formatni amaliy mazmun bilan boyitish maqsadida yuqori mansabdor shaxslarning amaliy yig‘ilishlari, tarmoq idoralarining ekspert uchrashuvlari va “Tokio intellektual muloqotlari” faol o‘tkazilmoqda. 2023-2025-yillarda Tokioda energetika vazirlari darajasida bo‘lib o‘tgan “Iqtisodiyot va energetika muloqotlari” alohida ahamiyat kasb etdi.

Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi infratuzilma tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashi doimo formatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Yaponiyaning JISA va JBIC tashkilotlari transport yo‘laklari, logistika markazlari, yo‘l tarmoqlari, muhandislik inshootlari, aeroportlar va temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda tizimli ishtirok etmoqda. Ushbu loyihalar mintaqadagi o‘zaro bog‘liqligini sezilarli darajada oshiradi, tranzit salohiyatini yuksaltirishga hissa qo‘shadi va Markaziy Osiyoning Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa o‘rtasidagi asosiy ko‘priklaridan biri sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

Raqamlashtirish va avtomatlashtirish sohasida ilg‘or texnologiyalarga ega bo‘lgan Yaponiya mintaqa davlatlari bilan faol tajriba almashmoqda. O‘zbekiston uchun ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega: mamlakat AKT sohasini jadal rivojlantirmoqda, AT parklar, texnoparklar tashkil etmoqda, raqamli iqtisodiyot dasturlarini ishga tushirmoqda, milliy kadrlar tayyorlash uchun yaponiyalik mutaxassislarni jalb qilmoqda.

Yaponiya ekologik xavfsiz rivojlanish, energiyatejamkor texnologiyalar sohasida an’anaviy yetakchilardan biri hisoblangani sababli ekologik kun tartibi ham hamkorlikning markaziy elementi hisoblanadi.

O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha mintaqadagi eng yirik davlat va asosiy transport-logistika markazlaridan biri sifatida muloqot kun tartibini shakllantirishda alohida rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston turli sohalarda yangi loyihalar tashabbuskori sifatida hamkorlikni amaliy mazmun bilan boyitishga salmoqli hissa qo‘shmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘tgan yigirma yil davomida muloqot mintaqa mamlakatlari va Yaponiyaga keng ko‘lamli yo‘nalishlarda tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beruvchi barqaror va talab yuqori bo‘lgan sheriklik mexanizmi sifatida qaror topdi.

O‘zbekiston Prezidentining Yaponiyaga bo‘ljak tashrifi va “Markaziy Osiyo+Yaponiya” sammitidagi ishtiroki ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama siyosiy hamkorlikni chuqurlashtirish, iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish, ta’lim va ilmiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shubhasiz, davlatimiz rahbarining o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga qaratilgan faol pozitsiyasi O‘zbekistonning mintaqaviy integratsiya va ochiq konstruktiv xalqaro muloqotga sodiqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Dunyo” AA

TOSHKENT MINTAQANING YETAKCHI TARAQQIYOT MARKAZIGA AYLANADI

Toshkent bugun nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqaning yetakchi taraqqiyot markaziga aylanayotgan, salohiyati, madaniyati va sivilizatsiyasi bilan jahon sahnasidagi mavqei toбора mustahkamlayotgan zamonaviy megapolisdir.

Qadimiy kentimiz 2200-yillik shonli tarixida hech qachon bunday yuksak maqom va kamolotga erishmagan, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Bular shunchaki balandparvoz gap yoki subyektiv mulohaza emas, balki aniq raqamlar va kuzatishlar bilan tasdiqlangan tahlil natijalari. Bu tahlillarni to‘liq anglash uchun poytaxt hayotining oxirgi 30-yillik rivojlanish bosqichiga nazar solish kifoy.

Birgina misol: poytaxt uchun eng og‘ir muammo uy-joy bilan ta’minlash edi. Bu masala uzoq yillar davomida yechilmay qolib, odamlarni charchatayotgandi. Shuningdek, Prezidentimizga kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha qilingan ishlar va issiqlik markazlarini rivojlantirish, Toshkent issiqlik elektr stansiyasini modernizatsiya qilish, poytaxtda obodonlashtirish ishlarini takomillashtirish bo‘yicha taqdimotlar qilindi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari raisligida Toshkent shahrini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama rivojlantirish, shahar muhitini yaxshilash va munosib yashash sharoitini yaratish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazildi. Unda, avvalo, poytaxtda bajarilgan ishlar

“Bugun poytaxtda 75 ta maktab va shuncha bog‘cha, 23 ta sport obyektiga ehtiyoj bor. Ayni paytda bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrovi 81,2 foiz. Prezidentimiz bergan topshiriqlar ijrosi ta’minlansa, bu ko‘rsatkich 100 foizga chiqadi.



Durdona RAHIMOVA,
Toshkent shahar hokimi o‘rinbosari

sarhisob qilindi. So‘nggi yillarda shaharda ulkan o‘zgarishlar ro‘y bergani ta’kidlandi. “2026-yil Toshkent shahri uchun “Jadal rivojlanish va aholi daromadlari o‘shishi” yili bo‘ladi. Bu g‘oyani ro‘yobga chiqarish bo‘yicha katta dastur amalga oshiriladi”, dedi Prezidentimiz.



Keyingi yillarda jamoat transporti qatnovi yaxshilanib, yangi va qulay avtobuslar xarid qilindi. Poytaxt metrosi ham kengaytirilib, yangi yo‘nalishlar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, yer osti va yer usti metropoliten liniyalarining umumiy uzunligi 70,5 kilometrga yetkazildi. Bekatlar soni 29 tadan 50 tagacha yetdi. Metro biri kunda 900 ming yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, avtoturagohlarni tartibga solish, piyodalar hududini kengaytirish, yo‘l harakati ustidan ma’muriy nazoratni kuchaytirish choralari ko‘rilmoqda. Albatta, bu kabi o‘zgarishlar infratuzilma yaxshilanishi, jamoat transporti rivojlanishi va intellektual boshqaruv tizimlari joriy etilishi, eng avvalo, aholining tez, xavfsiz va qulay harakatlanishiga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari bu yo‘nalishda ham oldimizda hal etilishi zarur bo‘lgan masalalar borligini qayd etdi va bunga qator yechimlar ko‘rsatdi. Xususan, endi yirik megapolislar kabi poytaxtimizda ham transport tizimini yagona yondashuv asosida boshqaradigan markaz faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Bu markaz har bir ko‘cha, har bir chorrahada transport va piyodalar oqimini sun‘iy intellekt yordamida tahlil qilib,

tirbandlik va yo‘l transport hodisasining oldini olish bilan shug‘ullanadi.

Kelgusi yili poytaxtga kirishdagi 2 ta nazorat posti shahar tashqarisiga ko‘chiriladi, 3 tasi rekonstruksiya qilinadi. Bu yerlarda kamida 3500 ta yuk mashinasi va 5500 ta yengil avtomobil uchun turagohlar hamda aholi uchun kempinglar barpo etiladi. Asosiysi, bu nuqtalar jamoat transporti tarmog‘i bilan bog‘lanadi.

Yana bir muhim yangilik. Kelgusi yilda Toshkent shahrida yangi tizim joriy qilinadi, “mahalla yetilligi” to‘liq shahar hokimligi ixtiyoriga o‘tadi. Xalq deputatlari Toshkent shahri kengashiga o‘rttirib bajarilgan daromadning mahalliy byudjetga qaytariladigan qismidan 20 foizini tumanlarga taqsimlash vakolati beriladi.

Qisqasi, Prezidentimiz Toshkent shahri boshqa shahar va tumanlar uchun namuna bo‘lishi kerakligini ta’kidlar ekan, kelgusi yilda bu borada bajarilishi zarur bo‘lgan ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Ularning ijro etilishi yozilgan va o‘zgarishlar markaziga inson qadri va manfaati qo‘yilgani, Toshkent mintaqaning yetakchi taraqqiyot markaziga aylanishini anglatadi.



Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bunday g‘amxo‘rlik hech bir davrda bo‘lmagan. Yaqin-yaqingacha ham odamlar ijtimoiy himoya deyilganda arzimagan nafaqa pulini tushunardi. Aslida, bu har bir oila va inson taqdiriga alohida yondashishda ko‘rinadi. Shu ma’noda, ijtimoiy himoyaning yangi tizimi yordam ko‘rsatilishi kerak, degan savollarga tizimli javob berilyapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham mamlakatimiz ijtimoiy sohasini rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, bir so‘z bilan aytganda, professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan aniq maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Ana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqib, sohadagi bir yillik siljishlarni kuzatdik.

Har bir inson jamiyatda o‘z o‘rnini his etyapti

Ikki farzandi bilan beva qolgan bir tanishimga qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar ancha paytgacha yordam berib turdi. Biroq hammaning o‘z tashvishi bo‘lganidek, asta-sekin yordamlar kamaydi. Hozir juvon o‘zining holidan doimiy xabar oladigan beminnat yordamchi — “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga suyanib kun ko‘ryapti. Endi avvalgidek yaqinlarining qo‘liga xijolatli qarab turmaydi. Oziq-ovqat, kiyim-kechakdan qiynalmayapti, boshqa ehtiyojlar uchun yordam puli ham tayin. Oyoqqa turib olgunicha ko‘mak kerak edi unga.

Yuqorida aytganimizdek, ijtimoiy himoyaning mahallaga tushirilgani islohotlar xalqning ichiga kirishiga xizmat qilyapti. Har bir inson jamiyatda o‘z o‘rni borligini his qila boshladi. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari yordamga muhtojlarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda asosiy tayanch nuqtaga aylandi. Moddiy, ma’naviy qiyinchiliklarga duch kelganlar bu yerdan najot topishi mumkinligiga ishonaypti. Zero, ular yon-atrofida qizilgani muammolari insoniylik bilan hal etilayotganini ko‘rib, xulosa qilyapti.

Har bir viloyat va tuman markazida “Inson” markazlari tashkil etilib, zamonaviy infratuzilma, texnik baza va malakali mutaxassislar bilan ta’minlandi. 208 ta tuman (shahar)dagi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan xizmat va yordam ko‘rsatish yuzasidan yuborilgan 8 milliondan ortiq ariza ko‘rib chiqildi.

Kambag‘al oilalarni aniqlash maqsadida 1,5 million oila so‘rovnomadan o‘tkazilib, 739 ming oila muammolari asosida “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratilib, “Kambag‘al oilalar” reyestriga kiritildi. Qariyb 2 millionga yaqin ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishi natijasida 400 mingdan ortiq oila kambag‘allikdan chiqarildi.

156 ming bola maktabgacha ta’limga imtiyozli qabul qilingani esa tizimda qamrov darajasini oshirishga xizmat qildi. 2,1 ming yosh garch asosida oliy ta’limga o‘qishga kirgani holda o‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan 308 talabaga ham oliygoh granti taqdim etildi. 4,1 ming talabaga kontrakt to‘lovi to‘lab berilgani, “qizil” toifadagi oilalarning “a’lo” baholarga o‘qiyotgan 68 talaba qiziga maxsus stipendiya tayinlangani eng xayrli ishlardan bo‘ldi.

“Qo‘ldan berganga qush to‘ymas”, deydi xalqimiz. Shundan kelib chiqib, kambag‘al oilalarni doimiy daromad bilan ta’minlash uchun 2,6 ming oilaga quyosh paneli, 500 ta oilaga do‘kon qurib berildi. “Faol hayotga qadam” dasturi doirasida o‘g‘il-qizlarni parvarishlashga

muhtoj 35,5 ming kishi yangi turdagi ijtimoiy va tibbiy xizmatlar bilan qamrab olindi. 141 ming shaxs sanatoriylarda sog‘lomlashtirildi. 2,7 million fuqaro bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Ota-onasiz bolalarning boshini silash ham xalqimizning azaliy qadriyati. O‘tib borayotgan yilda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, uy-joyga muhtoj 1962 bola uy-joy bilan ta’minlangani bu qadriyatning amaliy ifodasi bo‘ldi. “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan yordam ko‘rsatilgan muhtoj shaxslar toifasi kengaytirilganini raqamlardan ham bilish mumkin. Zero, 2024-yilda 74,1 ming shaxsga 101 milliard so‘m, 2025-yilda esa 56,6 ming kishiga 100 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Shu o‘rinda yaqindagina Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida yana bir muhim yangilik joriy etilganini aytib o‘tish o‘rinli. 16-dekabrda “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalarga “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armalari orqali ajratilayotgan yordamlar “Uzum market” elektron savdo maydonchasi orqali ham ko‘rsatila boshlandi. Unga ko‘ra, fuqarolar Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan shakllantirilgan vaucherlar (promokodlar) orqali mobil ilovadan foydalangan holda oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa eng zarur mahsulotlarni xarid qilishi mumkin.

Ijtimoiy sug‘urtadan qanday manfaatdorlik bor?

— Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasiga oid qonunchilik hujjatlari izchil takomillasib borayotgani shu yil 9-dekabr kuni davlatimiz rahbari imzolagan “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi qonunda yana bir bor o‘z isbotini topdi. Qonun fuqarolarni ishsizlik va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik holatlarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allik xavfini kamaytirish hamda tadbirkorlar uchun



nafaqa to‘lovlarini bo‘yicha ortiqcha yuklamani yengillashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Uning asosida Davlat ijtimoiy sug‘urtasiga jamg‘armasi tomonidan to‘lab beriladigan nafaqa turlari hamda ularning kuchga kirish muddatlari belgilandi. Yangi tizim orqali budget tashkilotlarida ishlovchi 2,2 millionga yaqin, xususiy sektorda band bo‘lgan 3,6 milliondan ko‘proq, yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi, o‘zini o‘zi band qilgan hamda norasmiy sektorda ishlayotgan 7 milliondan ortiq fuqaroning ijtimoiy kafolatlari ta’minlanadigan bo‘ldi.

— Xalqaro tajriba va rivojlangan davlatlar amaliyoti ko‘rsatadiki, aholining ijtimoiy sug‘urtaga jalb etilishi ko‘plab mamlakatlarda qonun darajasida mustahkamlangan. O‘zbekistonda ham ushbu sohada huquqiy asoslarni kuchaytirish orqali bir necha muhim



vazifalar belgilangan. Jumladan, fuqarolar og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolishining oldini olish, kambag‘allik xavfini kamaytirish, ijtimoiy sug‘urtasiga bilan qamrovni kengaytirish va rasmiy bandlikni rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi yuridik bo‘limi bosh mutaxassisi Farhod Xudoyorov. — Ijtimoiy sug‘urtasiga tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda bosqichma-bosqich takomillashtirish maqsad qilingan. Qonunga ko‘ra, uch turdagi — homiladorlik va tug‘ish, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik hamda ishdan so‘shash nafaqalari endilikda davlat ijtimoiy sug‘urtasi orqali to‘lanadi. Bu jarayon Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzurida tashkil etilgan Davlat ijtimoiy sug‘urtasiga jamg‘armasi tomonidan amalga oshiriladi. Demak, mehnat shaklidan qat’i nazar, barcha ish beruvchilarda faoliyat yuritayotgan xodimlar ushbu nafaqalardan teng asosda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Avval ayrim nafaqalar ham ish beruvchilar tomonidan to‘lab kelingan bo‘lsa, endilikda ular faqat Davlat ijtimoiy sug‘urtasiga jamg‘armasi orqali to‘lanadi. Bu tizimning shaffoligini, adolatligini oshiradi va yagona tartibda ishlashini ta’minlaydi.

Qonunga muvofiq, fuqarolar davlat ijtimoiy sug‘urtasi bilan ikki yo‘l orqali qamrab olinadi: majburiy va ixtiyoriy. Mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan xodimlar, jismoniy yoki yuridik shaxslarga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida xizmat ko‘rsatadigan yoki ish bajaradigan shaxslar majburiy sug‘urtaga jalb etuladi. Ixtiyoriy sug‘urtasiga bilan esa o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, oilaviy tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan fuqarolar, chet elda yollanib ishlayotgan shaxslar, dehqon xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar, ularning a‘zolari, tomonroq xo‘jaligida ishlovchilar, “Hunarmand” uyushmasi a‘zolari va boshqa toifadagi fuqarolar qamrab olinadi.



Majburiy sug‘urtasiga bo‘yicha xodimlar daromad solig‘ining muayyan qismi sug‘urtasiga badali sifatida jamg‘armaga yo‘naltiriladi. Ushbu badalning aniq miqdori qonun bilan belgilanadi. Ixtiyoriy sug‘urtasiga qo‘shilgan fuqarolar esa har oy minimal sug‘urtasiga badalini to‘laydi. Minimal badal miqdori mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 5 foizi etib belgilangan.

Qonunning yana bir muhim maqsadi xususiy sektorda ishlovchilarga to‘lanadigan nafaqalar bo‘yicha tadbirkorlar zimmasidagi ortiqcha moliyaviy yukni kamaytirishdir. Oldin homiladorlik va tug‘urug‘ nafaqasi, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi yo‘q boshqa to‘lovlar ayrim hollarda ish beruvchilar tomonidan qoplab kelinar edi. Endilikda ular to‘liq Davlat ijtimoiy sug‘urtasiga jamg‘armasi tomonidan to‘lanadi. Bu esa tadbirkorlarga bir qat’or yengilliklar yaratadi. Jumladan, ayollarni ishga qabul qilish bo‘yicha xavotirlar kamayadi, homiladorlik va tug‘urug‘ davridagi to‘lovlar tadbirkorga yuk bo‘lmaydi, ortiqcha xarajalar kamaygani sababli mahsulot tannarxi pasayadi, raqobatbardosh va arzonroq mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratiladi.

Umuman olganda, bu yondashuv tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm bo‘lib xizmat qiladi va ularning iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy barqarorlik esa o‘z-o‘zidan xalqning farovonligiga daxldor.

Davlat va jamiyat o‘rtasida ishonch ko‘prigi

Kenja farzandida autizm kasalligi aniqlangan ayol bolasining yura olmasligi, gapirmasligi sabab uydan chiqa olmay qoldi. Bolaga alohida parvarish zarurligidan hatto uy ishlariga ham ulgurib bo‘lmaydi ba’zan. Madori qolmagani sho‘rlilik loqaql bir kun kimdir unga yordam berishini juda-juda

xohlaydi. Mahalladagi ijtimoiy xodimning ko‘magi bilan bola kunduzgi parvarishlash markaziga yuborilgach, ayol qaddini tiklay boshlaydi. Markazda barcha sharoit muhayyo, ko‘ngli xotirjam. Bola yaxshigina o‘zgardi. Onasi bilan uyda yolg‘iz qolganida zerikib, injiqlik qilib, uni azoblashlari ortda qoldi. Endi akalari, boshga bolalar bilan ham o‘ynaydi. Har qanday muhitga ko‘nikadi. Ona esa uy ishlaridan ortib, sexda tikuvchilik ham qiladi.

Oila budgetiga hissa qo‘shayotgani, asosiysi, farzandi jamiyatga moslashayotgani uchun ijtimoiy xodimdan mingdan ming rozi.

Buning barchasi adolatli tizim asosida amalga oshayotganini ayolga tushuntirgan Nigora Boboqulova Olot tumanidagi Jayhunobod mahallasida yashovchi 3 mingdan ziyod oilaga xizmat qilyapti. Uning respublikamiz bo‘ylab barcha makasblari davlat va jamiyat o‘rtasida ishonch ko‘prigi vazifasini bajarishi qat’iy nazoratda. Odamlarning qiyin hayotiy sharoitlarini yengillashtirish, mushkul ahvolda qolganlarga ko‘mak berish, avvalo, ijtimoiy xodimlarga bog‘liq. Xizmalarda mahallada turib muammoni ko‘rish, tahlil qilish va har bir shaxs ehtiyojidan kelib chiqib yechim izlashdek mas’uliyatli vazifa bor. “Eng faol ijtimoiy xodim” ko‘rik-tanlovi esa fidoyilarni kashf etadi. Test sinovlaridan tashqari faoliyatidagi yaxshi keys taqdimoti, mahallada amalga oshirgan kichik ijtimoiy loyihalar ularga munosib baho beradi. Qolaversa, “Sall markaz” yordamida oilalar bilan bog‘lanib, keyslar samaradorligiga, ijtimoiy xodim faoliyatiga baho berilishi so‘raladi.

Keys shaxs (oila)ning muayyan ijtimoiy muammosini hal etishga qaratilgan xizmatlarni tashkil etish jarayoni bo‘lib, agar oilaning muammosi yengilroq bo‘lsa, ijtimoiy xodimning o‘zi ularga zarur yordamni beradi. Og‘ir hayotiy vaziyat sifatida baholangan keyslar “e-case” elektron moduli yordamida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markaziga yo‘naltiriladi. Joriy yilda 100 mingga yaqin keys ochilganidan ham bilish mumkinki, yangicha ishlash kutilgan natijani beryapti. Bu tizim, shuningdek, ijtimoiy xodim ishiniing rejaligini, aniqligi va hisobdorlikka asoslanishini ta’minlashi bilan ham ahamiyatli.

Xalqning dardiga darmonlik saodati

Joriy yilning 1-dekabr holatiga ko‘ra, respublikamiz bo‘yicha ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 715 ming 463 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ularning 167 ming 838 tasi nogironligi bo‘lgan 18 yoshgacha bolalar nafaqasi oluvchilar. Kuchli ijtimoiy himoya siyosati sabab bugun ularning aksariyati emim-erkin tarzda jamiyatga qo‘shilib boryapti. Ayni shu yosh toifasidagi bolalar orasidan inklyuziv ta’lim natijasida iqtidorli o‘quvchilar, mohir sportchilar, turli kasb-hunar egalari kashf etilyapti. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, xususan, nogiron bolalar va yoshlarni mehnat bozoriga samarali integratsiya qilish maqsadida tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikda kasbga o‘rgatish va xorijiy tillarni o‘qitishga qaratilgan qator loyihalar ishga tushgan. Ayni paytda mamlakatimiz bo‘ylab maxsus maktablarda 550 o‘quvchisi qamrab olgan 25 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Xorazm, Andijon, Namangan viloyatlarida kasb-hunar ustaxonalari qurilib, foydalanishga topshirildi. Natijada ushbu viloyatlarda 5 turdagi o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yildi.

Tadbirkorlarga nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgani uchun bir martalik subsideiya ajratilyapti. Ko‘plab korxona va tashkilotlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar faoliyat yuritayotganini ko‘rib xursand bo‘lasan kishi. Bu jamiyatda hamma tengligi, inson qadri ulug‘ligidan dalolat.

Darvoqe, xalqimizga yanada yaqinlashish, odamlarning og‘irini yengil qilish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligining “1070 yordam” tezkor boti ishga tushdi. Endi muhim ijtimoiy xizmatlar, murojaatlar va ma’lumotlar — barchasi bitta kichik ilovada jamlandi. Ilovaning “Xizmatlar” bo‘limida fuqaro Ijtimoiy himoya yagona reyestri orqali arizasi holatini tekshirishi, nafaqalar turi va shartlari haqida ma’lumot olishi, nogironlik bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish jarayonini kuzatishi, “Kambag‘allik reyestri” orqali ro‘yxatga kiritilganini bilishi mumkin. Mutasaddirlarning aytishicha, tez orada sanatoriyo yo‘nalishi ham ishga tushadi. Maqsad — ortiqcha ovoragarchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, odamlarning qimmatli vaqtini tejash, insoniylikning zamonaviy shakllarini hayotga tatbiq etish. Zero, har bir shaxs bunga munosib.

Ayni paytda eng chekka hududlardagi oddiy odamlar ham endi ijtimoiy davlatda yashayotganini, shu ma’noda, ijtimoiy himoya olishga haqli ekanini tushunib yetayotgan ekan, bu yo‘lda tashlayotgan har bir qadamimiz aniq, manzilli va natijador bo‘lishi shart va zarur.

ALOHIDA YONDASHUV AHAMIYATI

Sherzod BERDIYEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig‘i

“Kambag‘al oilalar reyestri” har bir inson taqdiriga daxldor dastur sifatida hayotga tatbiq etilayotgani alohida ahamiyatga ega. Zero, Xorazm viloyatida dastur doirasida 72 ming oilada so‘rovnoma o‘tkazilib, 53 mingdan ziyodi reyestrga kiritildi. Ular orasida e’tibor va parvarishga muhtojlar — qizil, ishlashga tayyor, ammo malakasi yo‘qlar — sariq, muayyan daromadli, nobarqaror oilalar esa yashil toifalarga kiritildi.

Albatta, har bir oila uchun alohida yondashuv juda muhim. Faqat moddiy yordam bilan muammoni hal qilib bo‘lmaydi. Shu bois, joriy yilning dastlabki sakkiz oyida 53,5 mingga yaqin oila uchun individual xizmat rejasini ishlab chiqildi. Natijada 83 mingga yaqin kishi kambag‘allikdan chiqarilib, yangi hayot sari qadam tashladi.

Hududda ehtiyojmand qatlamlarga sifati xizmat ko‘rsatish borasida ahamiyatga molik ishlar qilinmoqda. Masalan, Al-Xorazmiy mahallasida ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodimimiz muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari doirasida joriy yil ikkinchi chorak yakuni bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinni egalladi. Bu —

viloyatda “Inson qadri uchun” g‘oyasi amalda ro‘yobga chiqarilayotganini isbotlaydi. Fidoyi xodimlarimiz orqali ijtimoiy adolat, g‘amxo‘rlik va umid har bir xonadonga yetib bormoqda.

Yil boshidan buyon ushbu mahallaga tizimga oid ikki yuzdan ortiq murojaat kelib tushgan, ularning 80 foizdan ko‘pi ijobiy hal etildi. Bu esa tizimning samaradorligini amalda ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta’minlash yo‘nalishida salmoqli ishlar qilyapti. Mahalladagi har bir ijobiy o‘zgarish jipslik, mas’uliyat va mehnning mevasidir.

Mazkur mahallada yashovchi, boquvchisini yo‘qotgan shaxslar ro‘yxatida turuvchi



Go‘zal Ismoilova pazandalikka qiziqadi. Unga pazandalik jihozlari olib berildi. Voyaga yetmagan farzandlariga esa amaliy va moddiy yordam ko‘rsatildi.

Nusrat Hamdam o‘g‘li Yangibozor tumanidagi Do‘stlik mahallasida yashaydi. U belbog‘li kurash bilan shug‘ullangan. Baxtsiz tasodif bois, nogiron bo‘lib qolgan. Unga “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan sog‘lig‘ini tiklashi uchun “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi yordami berildi. Shuningdek,

Yangibozor tuman 1-bolalar va o‘smirlar sport maktabiga murabbiy bo‘lib ishga joylashishiga ko‘maklashildi. Nusrat aka joriy yilda “Besh tashabbus” olimpiadasida armrestling bo‘yicha respublikada ikkinchi o‘rinni egalladi.

Urganch tumanidagi Hamid Olimjon mahallasida faoliyat yuritayotgan “Grand woodworkers” MCHJ tomonidan imkoniyati cheklangan shaxslarning bandligini ta’minlash, ularni mehnat jarayoniga jalb qilish hamda ijtimoiy faolligini oshirish borasida samarali ishlar qilinmoqda. Korxona joriy yil may oyida mamlakat miqyosida o‘tkazilgan “Inson uchun” ko‘rgazmasida 5 milliard so‘mlikka yaqin shartnomalar imzoladi.

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 1-iyuldagi “Arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori asosida my.ihma.uz platformasi orqali korxonadagi bo‘sh ish o‘rinlariga nogironligi bo‘lgan shaxslar joylashirildi.

Bundan tashqari, “Kunduzgi parvarishlash xizmati” tashkil etilishi natijasida nogironligi bo‘lgan 200 dan ortiq bolaning ijtimoiylashuvi ta’minlandi. Viloyatdagi o‘zgalar parvarishiga muhtoj mingga yaqin fuqaro “Kunduzgi qatnov asosida qarab turish” xizmatiga qamrab olindi. Natijada ularning parvarishi bilan band bo‘lgan fuqarolar uchun ishlash imkoniyati yaratildi.



Bugunning gapi

Avvallari dalada ketmon ko'tarib, yer chopgan odam borki, dehqon, kattaroq yer egasi esa fermer sanalaverardi. Hozir "dehqon" so'zi deyarli ishlatilmay qoldi.

Endi yer egalari agrotadbirkor, klaster yoki fermer xo'jaligi rahbari kabi zamonaviy nomlar bilan atalyapti. Soha vakillarining faoliyati, yondashuvi, ish yo'nalishi ham shunga mos. Umuman, yangi O'zbekistonda an'anaviy qishloq xo'jaligi o'rmini ilm-fan va ilg'or texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tizim egalladi.

million 400 ming tonnalik xirmon ko'targan bo'lsa, sholikorlarimiz 1 million 340 ming tonna hosil olishga erishdi. Qolaversa, yurtimiz bo'yab 3,4 million tonna meva, 2 million tonna uzum, 19,5 million tonna sabzavot, poliz va kartoshka, 1 million tonna dukkakli va moyli ekinlar yetishtirildi.

Bunda, shubhasiz, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan 3,5 milliondan ziyod mehnatkashning hisssasi beqiyos. Ular salmoqli mehnati bilan el dasturxoniga qut-baraka olib kirmoqda. Qolaversa, serquyosh yurtimizda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xorij bozoridan ham munosib o'rin egallashiga xizmat qilayapti. Joriy yilda meva-sabzavotlarimiz 80

dan ziyod davlatga eksport qilingani so'zimiz isbotidir.

Davlatimiz rahbari shu yil 13-dekabr kuni O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga bayram tabrigi yo'lladi. Soha fidoyilarining xizmatini e'tirof etib, minnatdorlik bildirdi. Shuningdek, Prezidentimizning tegishli farmoni bilan sohada alohida o'rnatilgan bir guruh xodimlarga faxriy unvon, orden va medallar berildi.

Fermerning qanoti — texnika

Yer bilan tillashgan odam tuproq kabi kamtar, xokisor bo'ladi. Daromadi qancha oshsada, el dasturxonini obod qilish, xalq farovonligiga hissa qo'shish maqsadida intilaveradi. Suhbat orasida o'zi bir nechta davlatda bo'lgani, sayohatlarga chiqayotgani, farzandlari nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotganini aytganida ham xayolida maqtanish bo'lmaydi. Ammo hosildorligi bu yil karrasiga oshgani, ishlarni zamonaviy texnikalar bajarayotgani, ish jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llayotgani haqida og'zini to'ldirib gapiradi. Qilayotgan ishidan faxrlanadi.

Tursunpo'lat RAJABOV, Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi "Safarobod bog'i" fermer xo'jaligi rahbari, "Jasorat" medali sohibi:



— Bu yil hosildorlik ham, daromad ham zo'r bo'ldi — 470 gektardan ortiq maydondan 600 tonna g'alla, 2000 tonnadan ziyod paxta hosili oldik. 30 tonnadan oshiq go'sht mahsuloti, 2,5 tonnadan ko'proq asal, 100 tonnaga yaqin uzum, anorini bozorga chiqardik.

Oldinlari mehnatni qilaverdiki, daromadni olishga kelganda sarson bo'lardik. Sentyabrda paxta topshirsak, kelgusi yili avyugachga pulini ololmasdik. Shuning uchun 2017-yilgacha bizga paxtaning navi ham, hajmi ham ahamiyatli bo'lmagan, rejani bajarsak bo'ldi, deganmiz. Hozir daromad o'zimiznikini bo'lgani uchun hosildorlikni muttasil oshirib borishga intilyapmiz. Eng yaxshi navlarni yetishtirib, ilg'or texnologiyalarni qo'llayapmiz. Mo'l hosil olish uchun zamonaviy texnikalar kerak. Yer yaxshi tekislanmasa, o'z vaqtda shudgorlanmasa, hosil cho'g'i yuqori bo'lmaydi. Bu ham daromadga borib taqaladi. Oldinlari manaman degan boy fermer ham biror zamonaviy texnikani bazo'r sotib olardi.

Yigirma yildan buyon fermerlik bilan shug'ullanaman. Ishni 10 gektar yerga g'alla ekishdan boshlab, keyingi yili 3 gektarga paxta ekanmiz. O'shanda yerdan boshqa narsamiz bo'lmagan. Bu yer ham Qiziltepa markazidan 70 kilometr uzoqda joylashgani bois, odam borishi qiyin, tuproqning hosildorligi ham juda past edi. 2017-yilgacha bitta texnika olgan bo'lsam, o'shaning ham pulini to'lashga qiyinalib, qaytib texnika olmayman, deganman.

Fermer xo'jaligimiz faoliyatining yangi davri 2017-yildan keyin boshlandi. Ayni shu vaqtdan zamonaviy klaster tizimi joriy etilishi tufayli holat tubdan o'zgardi: fermerlarning yelkasisga shamol tegdi, kosasi oqardi. Men buni doim minnatdorlik bilan tilga olaman. Mana shu klaster tizimi sabab daromadimizga o'zimiz egalik qila

boshladik, yangi texnikalar sotib olishga imkoniyat va sharoitlar yaratildi. Lizingga texnika berildi. Uning ustiga imtiyozlar, subsidiyalar ham qo'shildi. Hozir har yili daromadimizdan 4-5 ta texnika sotib olamiz. Birgina o'zimizning fermer xo'jaligimda zamonaviy texnikalar soni 50 taga yetgan. O'tgan yili AQSHdan so'nggi rusumdagi paxta terish mashinasini olib keldik. Ishonsangiz, birinchi yili sutkasiga 50 tonnagacha paxta terdik. Bu yil yerni haydash ham, tekislash ham, paxtani yetishtirgandan keyin hosilni terish ham muammo bo'lmadi. Hammasini bajaradigan texnikalarimiz bor. Bir men emas, hozir hamma fermer shunday imkoniyatga ega. Bu yil rekordimizni yangiladik — zamonaviy terim mashinasida bir sutkada 75 tonnagacha paxta terdik. Tasavvur qiling, bitta fermer bir sutkada shuncha paxta teryapti. Hududimizda nechta fermer bo'lsa, hammasi shunday natijaga erishdi. Oldinlari butun hududdagi fermerlar birlashib ham sutkalik terimni 75 tonnaga chiqarga olmagun.

Kasbim mexanizatorlik bo'lgani uchun doim aytaman: oddiy mexanizator fermer bo'lib, bir o'zi shuncha ishni uddalay olmasdi. Bularning hammasi soha vakillariga yaratib berilayotgan imkoniyat va sharoitlar, 2017-yildan keyin boshlangan katta islohotlar samarasi. Shuncha texnikaga ega bo'lishimiz oldin xayolimga ham kelmagan. 2025-yilda 400 gektar yangi yer o'zlashtirdik. Bu qanchalik katta harakat ekanini soha vakillari yaxshi biladi. 2010-yillari fermer

yangi yerni o'zlashtirish u yoqda tursin, o'zining yerini eplolmasdi. Hozir qarang: yangi yerlarni o'zlashtiryapmiz. Shuning o'ziyoq islohotlar samarasini yaqqol ko'rsatib beradi. Ba'zan 500 yollanma ishchi ishlatib, haqini kunma-kun to'ladi. Bu ham imkoniyatlarimiz salmog'ini ko'rsatadimi? Otam har doim duo qilganida: "Bu imkoniyatlarning qadriga yetinglar, o'g'lim. Bugungidek sharoit bo'lmaganida, sizlar ham bizdek qiyinchilikda yashagan bo'lardinglar", deydi.

Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan Prezidentimiz farmoniga binoan "Jasorat" medali bilan taqdirlanganini eshitib, qanchalik to'liqlanganimni so'z bilan ifodalab berolmayman. Barcha mahalladoshlarim xonadonimizga kelib, havas bilan tabrikldi.



Ota-onam qiyinchilik ko'rgani, oilamiz bir paytlar qanday kunlarni boshdan o'tkazganini butun mahalla-ko'y yaxshi biladi. Shular haqida o'yladim-u, bugun yangi O'zbekistonda ilg'or fermer bo'lib, yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo'shayotganimdan faxrlandim. Mukofot barcha mahalladoshlarimning kayfiyatiga ko'tarinkilik bag'ishladi. "Bugun mehnat qilgan odam kam

bo'lmayapti. Buni sizning misolingizda ham ko'rayapmiz", deyishdi.

Ayniqsa, "Jasorat" medalini ko'ksimga davlatimiz rahbarining o'zi taqqani hayotimdagi unutilmas voqea bo'ldi. Mukofotni qabul qilib olayotganimda, "Tursunpo'lat, bilaman, sen qattiq ishlaysan. Bundan ham qattiq ishlab, nasib bo'lsa, yangi marralarga yetavergin. Men senga shunday medal, ordenlarni beraverman", deganidagi hayajonim va taassurotlarimni tasvirlab berolmayman. Axir davlat rahbari bilan ko'rishib, shunday iliq gaplarni eshitish har kimga ham nasib qilmaydi-da!

Oddiy fermerman. Doim halol mehnat qilishga intilaman. Qiziltepa tumani azaldan cho'l hudud bo'lgan. Ana shu joylar endi cho'l bo'lmasin,

bog'u bo'stonga aylansin degan maqsadda Surxondaryodan 10 mingta archa ko'chati olib kelib o'tqazdik. Paxta va g'alla hosildorligini bir necha barobar oshirdik. Tumandagi 5 kilometr ariqni betonlashtirib, suv yo'qotishlarining oldi olindi. Bunday xayrli ishlarni yanada kuch-g'ayrat bilan davom ettiramiz. "Jasorat" medali meni yangi-yangi maqsadlarga undovchi ulkan ishonch belgisidir.

ULARNING MEHNATI DOIM E'TIROFDA

3,5 MILLION MEHNATKASH YURTIMIZ FAROVONLIGIGA HISSA QO'SHYAPTI



Pillachilikda ikkinchi mavsum ham yo'lga qo'yildi

Pillachilik qishloq xo'jaligining go'yoki sezilmas, ammo muhim tarmoqlaridan. Bu O'zbekiston to'qimachilik sanoati uchun eng zarur xomashyo vazifasini o'taydi. Qolaversa, xotin-qizlar bandligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Azaldan momolarimiz pilla qurti boqib, xonadon daromadiga hissa qo'shgan.

Namanganlik Manzura Rahimova 30 yildan beri pillachilik bilan shug'ullanadi. Avvallari pilla

boquvchi sifatida oila a'zolariga ko'maklashgan bo'lsa, keyinchalik shu yo'nalishni mahkam tutib, boshqalarni ish bilan ta'minlay boshladi. Joriy yilgi pilla yetishtirish mavsumida u yashayotgan Norin tumanida 4000 dan ortiq ishsiz shu yo'nalishga jalb qilinib, bandligi ta'minlandi. Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan taqdirlanganlar orasida Manzura Rahimovaning ham nomi bor.

Manzura RAHIMOVA, Namangan viloyati Norin tumanidagi "Norin agropilla" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi:



— To'g'risi, bu mukofot men uchun kutilmagan e'tirof bo'ldi. Tumanimiz hokimi bu haqida e'lon qilib, tabriklaganida, birinchi bo'lib dadajonimni esladim. U bizni hamisha halol mehnat qilishga, to'g'riso'z bo'lishga o'rgatdi. "Birovning dilini og'ritma, to'g'ri bo'l: haqiqat egiladi, bukiladi, lekin sinmaydi", degan nasihatini ko'p aytardi. Biz ana shu o'g'itlarga amal qilib yashayapmiz. Dadam hayot bo'lganida, men bilan faxrlangan bo'lardi.

Ko'ksimga taqilgan orden bilan, birinchi navbatda, to'g'ri 75 yoshli onajonimning oldiga bordim. Meni o'qitib, tarbiyalagani uchun rahmat aytib, keyin uyimga ketdim. Bu jarayonlardagi hayajonim, taassurotimni ifodalab berolmasam kerak.

Bolalikdan ipak qurti boqib katta bo'lganmiz. Mashhaqqati og'ir ish edi. Qurtlarga ozuqa uchun tut bargi keltirib, solib chiqquncha kun kech bo'lardi. Chunki barg qidirib uzoqlarga borishga to'g'ri kelardi. Hozir tutzorlar yaqin joyda, ozuqa topish ham muammo emas. Pilla yetishtirish zamonaviylashtirib boryapti. Ipak qurtini plyonka ostida boqypmiz. Bu ozuqa sarfini ancha tejaydi.

Pilla parvarishidan ko'riladigan moddiy manfaatdorlik ham oshgan. Avvallari pillakorlar ozgina o'tin yoki g'alla uchun pilla boqqan. Hozir topshirilgan har bir kilogramm uchun tarozi ustida xizmat haqi beriladi. Qolaversa, bir oy ipak qurti boqqanlik uchun bir yillik mehnat

staji yoziladi. Topadigan mablag'imiz daromad soliqlaridan ham ozod qilingan. Avval bunday sharoit yo'q edi.

Korxonamiz xonadonlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Talabgorlarga ipak qurti va ozuqasi yetkazib beriladi. Tumanimizning o'zida yuqori navli tut ko'chatlarini yetishtiramiz. Xonadonlar bir oy davomida pilla yetishtirib, hosilni bizga topshiradi-da, pulini oladi. Mazkur ish uyda o'tiradigan xotin-qizlar uchun juda qulay. Hozir mamlakatimiz qishloq xo'jaligi ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlanib borayotir. Bu hosildorlik va daromad ortishiga xizmat qilyapti. Avvalgidek mahsulotlar bir emas, bir necha mavsumda yetishtirilyapti. Ushbu tajriba oxirgi ikki yilda pillachilik yo'nalishiga ham kirib keldi. Odatda, pilla qurti aprel-may oyilarida boqiladi. Ammo hozir ikkinchi mavsum ham yo'lga qo'yilgan. U avgust-sentyabr oyilariga to'g'ri keladi.

Hosildorlik ham ancha yuqori. Bir qutidan o'rta 60-65 kilogramm ipak olinayapti. Bunday ko'rsatkichni 70-75 kilogrammga yetkazadigan ilg'or pillakorlarimiz ham bor.

2025-yil mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va sohada mehnat qilayotgan agrotadbirkorlar uchun ancha sarmahsul va barakali bo'ldi. Kelgusi yil uchun belgilangan vazifalar, ko'zlangan maqsadlar bisyor. Davlatimiz rahbari bayram tabrigida ularga alohida to'xtaldi. Mehnatkash, tanti, fidoyi mirishkorlarimiz esa ularni bajarish rejasini hozirdan boshlayapti.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yoshlar — kelajagimiz

Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan mukofotlangan bir guruh yurtdoshlarimiz orasida yuranch doktorant Akbarali Turdiyev ham bor. Davlatimiz rahbari uning ko'ksiga "Kelajak bunyodkori" medalini taqib qo'ydi. Yigit esa yorug' yuz, ko'tarinki ruh bilan qilgan ishlari haqida qisqacha gapirib berdi. Uning ertangi kunga umid, yorug' kelajakka ishonch-la yonib turgan ko'zlari, dadil so'zlari yangi avlod vakillariga xos bo'ldi.

Akbarali ayni paytda zamonaviy texnologiyalar jamiyat taraqqiyotining asosi, innovatsion yondashuvlar, ilg'or g'oyalari va ilm-fan yutuqlari asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylanganini chuqur his qiladi. Shuningdek, texnologik rivojlanish jarayonida eng muhim tamoyillardan biri yurtga sadoqat, vatanparvarlik ekanini yaxshi biladi. Uning nazdida texnologiya vositasida erishilgan har qanday yutuq, agar u xalq farovonligiga xizmat qilmasa, qadr to'lmaydi.

Surxondaryo viloyatining Qumqo'rg'on tumanida ulg'aygan 27 yoshli Akbarali bolalikdan qishloqdagi qiyinchiliklarni yengish, muammolarga yechim topishga o'rgangan.

Texnikaga mehri balandligidan eskidan yangilik yasash, mustaqil ravishda tajriba o'tkazishga ishtiyuqmand edi. 9-10 yoshlaridayoq murakkab muammolarga amaliy yechim topishga harakat qilardi. Masalan, elektr energiyasi tez-tez uzilib qolgan paytlari oddiy telefon quvvatlagichi asosida avtomatik yonadigan chiroqlar yasab, oilasi va yaqinlariga yordam bergan.

Ijodiy intilishlari e'tiborga tushgan kezlari "Mahalla — mening taqdirimda" tanlovda 2-o'rinni egallab, planshet bilan mukofotlangani yosh xitrochini ruhlantirib yubordi. 2016-yilda ilk biznes g'oyasini ishlab chiqib, "Tashabbus — 2016" tanloviga taqdim etdi va "Yosh tadbirkor mahsuloti jahon bozorida" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. 2017-yilda Akbarali Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI) milliy tadqiqot universitetiga eng yuqori ball bilan grant asosida qabul qilindi. Bundan sira hovliqib ketmadi. Aksincha, o'qish davomida ham ota-onasidan moddiy ko'mak olmaslikka qaror qildi. Darslardan so'ng yug'ur tashish, kundalik mehnat orqali topgan mablag'i bilan innovatsion loyihalarini moliyalashtirib bordi.

Ilk innovatsion qadam

2018-2019-yillarda Akbarali birinchi prototip loyihasi — SmartGidroni tayyorladi. Qurilma suvdan energiya olishdan tashqari tomchilatib

sug'orish uchun zarur bosimni ham bera olgani bois, "Butunjahon suv kuni — 2019" doirasidagi tanlovda 1-o'ringa munosib ko'ridi.

Shundan keyin jamoasi bilan birga astoydil ishga kirishgan qahramonimiz qishloq xo'jaligiga Smart Drip Irrigation System — aqli tomchilatib sug'orish tizimini taqdim etdi. Ayni loyiha ham 2021-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Innoweek — Technoways" marafonida 1-o'ringa loyiq topilib, uni moliyalashtirish uchun 30 million so'm

ajratildi. Keyinchalik takomillashtirilgan, 420 ming AQSH dollari evaziga moliyalashtirilgan aqli sug'orish tizimi hozir O'zbekistonning 6 ta hududida amaliyotga joriy etilgan.

Ekologik toza elektr traktor va MTU35

Aqli tomchilatib sug'orish texnologiyasidan manfaatdor odamlarning ijobiy fikrlari endi



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



HAR QANDAY BUNYODKORLIKDA VATAN MEHRI BO'LSA...

ishlashdan tashqari, yonilg'i xarajatini keskin kamaytiradi.

HETA ko'plab xalqaro konferensiyalar va nufuzli anjumanlarda taqdim etilib, qator investorlar va tashkilotlar e'tiborini qozondi. 2025-yilga kelib, loyiha texnik va funksional jihatdan yanada takomillashti. Uning asosida yana bir yangi avlod qurilmasi — MTU35 (milliy tadqiqot universiteti va traktorning 35 ot kuchiga ega texnik kuchi) kashf etildi. Ushbu kashfiyot ekologik toza, gibrid elektr quvvat tizimi, haydovchisiz yurish imkoniyati, masofadan boshqaruv (12 kilometr radiusda boshqarilishi mumkin), zamonaviy dizaynga ega. 2022-yilda ishlab chiqilgan MTU35 hali biror investor tomonidan moliyalashtirilmagan. Barcha texnik ishlamlar, yig'ish, sinovlar va taqdimotlar universitet va jamoaning sa'y-harakati evaziga amalga oshirilgan. Shuningdek, oliyog' tomonidan texnik bazalar, laboratoriyalar va ilmiy rahbarlik borasida muntazam yordam berib kelinmoqda.

Bu yil Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tadbirida davlatimiz rahbariga MTU35 haqida ma'lumot berildi. Uchrashuvda loyiha ijobiy baho berilgani Akbarali va shogirdlariga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Jamoaning endigi maqsadi — xalqaro investorlarni jalb etish, MTU35 ni omamaviy ishlab chiqarish va global qishloq xo'jaligi texnikasi bozoriga chiqish. Zero, ushbu loyiha hozir bir nechta yirik xalqaro tashkilot qiziqish bildirmoqda. Bu tez orada real moliyalashtirish va eksport imkoniyati ochilishi mumkin, degani.

Munojat RAHIMJON qizi, jurnalist

Sun'iy intellekt texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi jahondagi global o'zgarishlarning yetakchi omillaridan biriga aylanib ulgurdy. Uni iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha sohalariga joriy etish hech bir davlat uchun innovatsion ustunlik emas, balki raqobatbardoshlik, samarali davlat boshqaruvi, aholi turmush sifati va yangiliklar sur'atini belgilab beruvchi hayotiy ehtiyojga aylandi.

Sun'iy intellekt qaror qabul qilish modelarini o'zgartiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va an'anaviy usullar bilan erishib bo'lmaydigan yuqori texnologik imkoniyatlarni yaratadi.

Ayniqsa, inson hayoti uchun hal qiluvchi tarmoqlarda sun'iy intellektning o'rni beqiyos. Xususan, u tibbiyot sohasida kasalliklarni erta aniqlash, ulkan ma'lumotlar bazasini tahlil qilish va davolash samaradorligini oshirishda qo'l kelmoqda. Bu borada AQSH, Janubiy Koreya va Britaniya kabi davlatlar sezilarli natijalarga erishgan.

Ta'lim sohasida esa sun'iy intellekt individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish, baholash jarayonini avtomatlashtirish va moslashtirilgan o'quv resurslarini yaratish imkonini bermoqda. Finlyandiya va Singapurda bu texnologiyalar ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan.

Transport sohasida sun'iy intellekt muqobil harakat tizimlari, intellektual yo'l harakati boshqaruvi kabi yechimlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Buning amaliyotdagi namunasi AQSH, Xitoy, Germaniya va Yaponiyada ko'rish mumkin.

Dunyo shiddat bilan rivojlangani sari zamonaviy texnologiyalarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Xususan, fazodan foydalanish cheksiz imkoniyat va mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy nuqtasiga aylanib ulgurdy. Bugunga kelib jahon bozorida sohaning iqtisodiy ulushi 630 milliard dollardan oshdi. Tahlilchilar bu raqam 2030-yilga borib bir trillion dollarga, 2035-yilda esa ikki trillion dollarga yetishi mumkinligini taxmin qilmoqda.

Kosmik sanoatda sun'iy intellekt kosmik apparatlarni avtonom boshqarish, yer yuzi tasvirlarini qayta ishlash va ilmiy ma'lumotlarni tahlil etishda muhim vositaga aylanmoqda.

Bundan sakkiz yil avval yurtimizda raqamlashtirish va yuqori texnologiyali loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit davlat siyosati yo'q, raqamli infratuzilma yirik loyihalar uchun yetarli emas, kadrlar tanqis, ta'lim dasturlari katta ma'lumotlar, robototexnikaga yo'naltirilmagandi.

Taraqqiyot odimlari

“ Kosmik sanoatda sun'iy intellekt kosmik apparatlarni avtonom boshqarish, yer yuzi tasvirlarini qayta ishlash va ilmiy ma'lumotlarni tahlil etishda muhim vositaga aylanmoqda.



DMED 24 million aholining elektron tibbiy kartasini kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan yagona tibbiyot axborot tizimi hisoblanadi.

Keyingi yillarda bu sohada katta o'zgarishlar boshlandi. “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasi ishlab chiqildi. Texnologik parklar, zamonaviy AT xabar tashkil etildi. Mutaxassislar tayyorlash dasturlari sezilarli kengaytirildi. Tibbiyot, ta'lim, transport va davlat boshqaruvi sohalarida raqamli islohotlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston xalqaro innovatsion loyihalarga qo'shilib, sun'iy intellekt asosidagi yechimlarini ishlab chiqish, yoshlarning startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratga boshladi.

Poytaxtimizda joriy yil 28-noyabr kuni sun'iy intellekt bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro forumda Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda start berilgan “Besh million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasi yurtimizdagi islohotlarning yangi bosqichi boshlanganidan darak beradi.

Mazkur loyiha doirasida 2030-yilga qadar 4 million 750 ming o'quvchi va talaba, 150 ming o'qituvchi hamda 100 ming davlat xizmatchisini o'qitish ko'zda tutilgan. Bunda sun'iy intellekt maktab, kasb ta'limi va oliy ta'lim tizimlariga integratsiya qilinadi.

BESH MILLION SUN'YI INTELEKT YETAKCHILARI

Loyihani ishga tushirish marosimida davlatimiz rahbari “Ishonamanki, “5 million sun'iy intellekt yetakchilari” dasturi kelgusida iqtisodiyot drayveriga aylanib, mamlakatimizning jadal taraqqiyoti uchun shiddat bag'ishlaydi”, dedi.

Ushbu dadil qadam O'zbekistonning raqamlashtirish yo'lidagi muayyan amaliyotlardan ommaviy, inklyuziv va raqamli taraqqiyotga o'tganini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, intellektual texnologiyalardan samarali foydalana oladigan jamiyatni

shakllantirishga qaratilgan strategik yo'nalishdir.

Shubhasiz, bunday dasturlar mamlakatimizning global innovatsion iqtisodiyotdagi o'rmini mustahkamlash yo'liga muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz 1-dekabr kuni sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va kosmos sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha qilinayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining oktabr oyida qabul qilingan “Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid



qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni va “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan yurtimizda bu borada zarur infratuzilma barpo etish hamda kadrlar tayyorlash uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur hisoblash infratuzilmasi barpo qilinmoqda. Jumladan, AQSHning “Nvidia” kompaniyasi bilan hamkorlikda superkompyuter klasterini ishga tushirish loyihasi amalga oshirilmogda.

Yig'ilishda Sog'liqni saqlash vazirligining raqamlashtirilganlik holati va sohaga sun'iy intellekt joriy etish masalalari ko'rib chiqildi, — deydi sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Olim Omonov. — Tibbiyot sohasida sun'iy intellekt bo'yicha 5 ta loyiha joriy qilinmoqda. Insult, ko'krak saratonini sun'iy intellekt yordamida aniqlash orqali diagnostika vaqti 80 foiz tejalib, hayot uchun xavfli holatlar barvaqt aniqlanmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida diagnoz qo'yish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida yangi diagnostika tizimlarini joriy etish rejalashtirilgan. Bu tizimlar jigar, o'pka va prostata bezi saratoni, infarkt va murakkab suyak sinishlarini aniqlashda tibbiy suratlardan foydalanishni nazardda tutadi.

Mazkur loyihalarda, birinchi galda, joylardagi mas'ullar malakasini oshirish zarurliq qayd etildi. Shuningdek, vazirlik tomonidan yaratilgan yagona platforma — DMED axborot tizimida barcha jarayonlarni sun'iy intellekt orqali amalga oshirish ko'rsatib o'tildi.

DMED 24 million aholining elektron tibbiy kartasini kiritish imkoniyatiga ega bo'lgan yagona tibbiyot axborot tizimi hisoblanadi. Mazkur platformada tibbiyot xodimlari va farmatsevtika kompaniyalari o'rnatidagi yashirin kelishuvlarning oldini olish maqsadida “Elektron resept” moduli ishlab chiqilgan.

Bu modul dori-darmonning dozalari va shakllarini hisobga olgan holda retseptlarni elektron shaklda berish, ularning markirovkasini nazorat qilgan holda sotish, hisobot yuritish jarayonini avtomatlashtirish hamda bemorlar uchun mobil ilova orqali retseptlar harakatini kuzatib turish imkonini beradi. Shuningdek, aholi va shifokorlar uchun mobil ilovalar yaratilgan.

Bir so'z bilan aytganda, qo'yilayotgan har bir qadam, amalga oshirilayotgan har bir islohot, joriy qilinayotgan har bir tizim xalqimizning farovon hayoti va yurt taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

TA'LIM ISLOHOTLARI

OLIYGOHLAR FAOLIYATIDA NAMOYON

Nuqtayi nazar

Bugun oliy ta'limga berilayotgan alohida e'tibor har bir o'quv dargohi faoliyatida o'z samarasini beryapti. Ya'ni ularda yoshlarning bilim olishi uchun barcha sharoit yaratilyapti. Ilmiy salohiyatni oshirish, xalqaro standartlarga moslashishga oid istiqbolli loyihalar hayotga izchil tatbiq etilmogda. Farg'ona davlat universitetida yakunlanayotgan yil davomida qilingan ishlar bunga yaqqol misol bo'ladi.



Nuriddin RAHMONOV,
Farg'ona davlat universiteti axborot xizmati bo'limi boshlig'i

Jumladan, joriy yil iyul-avgust oylarida Farg'ona viloyatidagi xorijiy va qo'shma korxonalarda amaliyot o'tash hamda kasbiy tayyorgarligini oshirish orqali talabalar bandligini ta'minlashga qaratilgan loyihaga qo'l urilgan edi. Natijada barcha talabalar uch tomonlama shartnoma asosida belgilangan korxonalarda amaliyot o'tadi. Ushbu tashabbus ta'lim, ishlab chiqarish va yoshlar siyosatini integratsiyalovchi samarali metod sifatida shakllandi.

Shuningdek, har hafta tashkil etiladigan “Talaba xavfsizligi kuni”, “Karyera va biznes”



“ Oliygoh “QS Stars” baholash tizimida to'rt yulduzga sazovor bo'lib, ta'lim sifati va ilmiy salohiyatining xalqaro e'tirofini tasdiqladi. Ushbu yutuqlar Farg'ona davlat universitetida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik samarasini yaqqol namoyon etadi.

marafoni, “Kelajakka qadam” tadbirlari, mentorlik tizimi, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yoshlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirmogda.

Oliy o'quv dargohimizni o'tgan yili 7845 talaba tamomlab, bakalavr diplomini oldi. Ular bugun hayotdan mamnun. Ertangi kunga dadil qadam qo'yumogda.

— Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomladim. Ustozlarimiz nafaqat o'quv jarayonida, balki hayotda o'z yo'limizni topishimiz, ishl bo'lishimizda ham chinakam yo'l ko'rsatuvchi vazifasini bajardi, — deydi Husnidobonu Mahmudova.

— “Ustoz-shogird” an'anasi tufayli bilim olish bilan birga kasbiy ko'nikma, hayotiy tajriba orttiridik, eng asosiysi, kelajakka ishonch bilan qarashni o'rgandik. Hozir Farg'ona shahridagi “Platon School” xususiy maktabida jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi bo'lib ishlayapman. Shu bilan birga, bilimimni chuqurlashtirish, ilmiy izlanishlarimni davom ettirish maqsadida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi bo'yicha magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilindim. Bugun ta'lim tizimidagi

islohotlar ham bir yoshga keng imkoniyatlar eshigini ochmogda. Talabalik davrimda bunday imkoniyatlardan samarali foydalandim. Ayniqsa, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishiga qaratilgan “Dolzab 90 kun” loyihasi hayotiy maktab bo'ldi. Har bir muvaffaqiyatim ortida fidoyi ustozlarim, mehribon otacha-onam, el-yurtimiz va davlatimiz ishonchi turibdi. Bu ishonchni oqlash uchun mehnat qilishda, o'z ustimda tinimsiz ishlashda davom etaman.

Universitetimizda o'tkazilgan “Islohotlar — mening taqdirimda” insholar ko'rik-tanlovi ishtirokchisi — talaba Shahrizoda Komilovaning fikri ham ko'pchilikning e'tiborini tortdi:

“... Yangi O'zbekistonda hayotim, orzu-intilishlarim, ta'lim olishim va kelajagim bilan chambarchas bog'liq islohotlar ro'y bermoqda. Ko'hna tarix shundan dalolat beradiki, yangilik qilish, eskicha qolip va andozalarni o'zgartirish hech qachon oson bo'lmagan. Har qanday davrda ham yo'chiq, yo pinhona to'siqlar bo'ladi. Ammo bugungi kunimizning eng katta yutug'i shundaki, barcha islohotlar markaziga inson qadri qo'yilgan. Shu sababli, o'zimni chin ma'noda qadrlangan, ertangi kuniga ishonch bilan qaraydigan yosh sifatida his qilaman.

Umrimning oltin davri paxta dalarida emas, yorug' va shinam auditoriyalarda, tajribali ustozlar darslarida o'tyapti. Biz endi bilim olish uchun o'qiyapmiz, ko'nglimizni ilmu ijodga, orzu-maqсадlar ro'yobiga bag'ishlayapmiz. Kuni kecha bir kursdoshim xalqaro grant sohibi bo'ldi, yana biri chet tili bo'yicha xorijga amaliyot o'tash uchun ketdi, boshqasi startap loyihasi uchun davlardan moliyaviy ko'mak oldi. Bularga chin dildan havasim keldi va o'zimni ham kelajakda yuksak marralarda tasavvur qildim.

Bugun ilmiy maqolalar yozish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish, xorijiy universitetlarda ikki diplomli dasturlarda o'qish, turli stipendiya va grantlarni qo'lga kiritish kabi imkoniyatlarimiz bor. Bepul elektron kutubxonalar, onlayn ma'lumot bazalari, zamonaviy laboratoriyalar, axborot texnologiyalari va hatto startaplarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham yangi O'zbekiston yoshlariga berilayotgan bebaho tuhfadir...”

G'oyaviy tahdidlar, axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir paytda ma'naviy uyg'onish tushunchasi yangicha ma'no kasb etmogda. Bugungi tinch va barqaror hayotimiz izchil islohotlar, xalq hamda davlat hamijihatligi mevasidir. E'tiborlisi, universitetimiz jamoasi islohotlarga mos ko'plab tashabbus va g'oyalarni ilgari surib, xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlarni tobora kengaytirmogda. Xususan, joriy yilda innovatsion hamkorlik, oliy va kasbiy ta'lim masalalari bo'yicha O'zbekiston — Belarus ikkinchi ta'lim forumiga mezbonlik qildi. Forumda ikki davlat oliy va kasbiy ta'lim muassasalari o'rnatida hamkorlik kelishuvlari imzolandi. Bu kelgusida ta'lim sohasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tarishda mustahkam zamin vazifasini o'taydi.

Shuningdek, Markaziy Osiyo, Yevropa va Amerikadan kelgan 300 dan ortiq nufuzli ishtirokchini birlashtirgan “Farg'ona vodiysi: tinchlik va taraqqiyot yo'lidagi birdamlik” mavzusida tinchlik forumi bo'lib o'tdi.

Universitetimizda so'nggi yillarda xalqaro reytinglar bilan ishlash tizimli yo'lga qo'yilib, muhim natijalarga erishilayotgani ham diqqatga sazovor. Xususan, “Universitet Times Higher Education” (THE), “QS”, “RUR”, “UI GreenMetric”, “Webometrics” kabi nufuzli reyting platformalarida munosib o'rnlarni egallab, jahon akademik maydonida nufuzini mustahkamlab bormogda. “THE Impact Rankings” doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha qator yo'nalishlarda OTMlarning yetakchi 500 talik va 1000 talik ro'yxatlaridan joy oldi. “RUR” reytingida O'zbekiston oliyoghlari orasida yetakchi o'rnlardan birini egalladi. “UI GreenMetric” reytingida esa barqaror rivojlanayotgan 500 universitet qatoriga kirib, qisqa muddatda yuzlab pog'ona yuqoriladi.

Oliygoh “QS Stars” baholash tizimida to'rt yulduzga sazovor bo'lib, ta'lim sifati va ilmiy salohiyatining xalqaro e'tirofini tasdiqladi. Ushbu yutuqlar Farg'ona davlat universitetida amalga oshirilayotgan yangilanishlar, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik samarasini yaqqol namoyon etadi.

Sport

— O'n bir yildan beri sportning trampkindan sakrash turi bilan shug'ullanaman. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston chempioniman, — deydi **Ayman Orazboyeva**. — **Bizga zamonaviy, barcha sharoitga ega gimnastika markazi qurib berilgan. Bu yerda kelgusida katta musobaqalar o'tkazilishini eshitib juda quvondik.**

GIMNASTIKA MARKAZI — BO'LAJAK CHEMAIONLAR MAKTABI



— Gimnastika markazimizda yotoqxona, oshxona va kutubxonalarimiz ham bor, — deb gapga qo'shildi yana bir sportchi qiz Nurjamol Bektilovova. — Biz sport bilan shug'ullanish barobarida yonimizdagi maktabda o'qishni ham davom ettiramiz.

Ha, yaqinda Nukusda faoliyat boshlagan Gimnastika sport turlariga tayyorlash markazi yoshlarni katta orzular sari boshlamogda. Bu markaz Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabr kuni “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida ko'rsatilgan vazifalarning amaliy ifodasi bo'ldi. Markaz aholi o'rnatida gimnastikani ommalashtirishga xizmat qiladi. Buning uchun bu yerda yosh iste'dodlarni topish, tanlash, saralash va professional sportchi qilib tayyorlashning yangi tizimi yo'lga qo'yilgan.

— Maktab nafaqat nukusliklar, balki butun Qoraqalpog'iston uchun katta yangilik bo'ldi. Qurilish ishlari 79,1 milliard so'm ajratilgan edi. Shuning hisobiga 34x66 metr o'lchamdagi gimnastika zali, 240 o'rinni tribun, VIP zona, o'g'il va qiz bolalar hamda murabbiylar uchun yuvinish-kiyinish xonalari, xoreografiya va trenajyor zallari qurildi. Gimnastika zalida bir vaqtning o'zida 120 nafar yosh badiiy gimnastika, trampkindan sakrash va sport gimnastikasi bilan shug'ullanish imkoniga ega, — deydi Nukus gimnastika mahorati maktabi direktori vazifasini bajaruvchi Ulug'bek Jumaniyozov.

Gimnastik mashg'ulotlar bolalarning umumi salomatligini tiklashda ijobiy natija beradi. Muayyan harakatlarni bajarish tanada modda almashinuvini yaxshilaydi. Bu esa bolalar, jumladan, qizlarning jismoniy rivojlanishiga zamin hozirlaydi. Musiga va raqs san'ati elementlarining badiiy gimnastikada jam bo'lgani qizlarni estetik tarbiyalashda o'ziga xos o'rinni tutadi.

— Hozir Qoraqalpog'istonda sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampkindan sakrash sport turi bo'yicha 22 ta sport ta'lim muassasasida mashg'ulotlar o'tkazilyapti, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi sport vaziri o'rinbosari Azamat Qalboyev. — Ulardagi jami 190 ta guruhda 2,5 mingdan ortiq yosh 84 murabbiy boshchiligidagi shug'ullanadi. Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrda qarori asosida gimnastika markazi 4,5 milliard so'mlik zamonaviy sport jihozlari va inventarlar bilan ta'minlangan.

Yaratilgan sharoit va imkoniyatlar sabab yoshlar orasida gimnastika sport turlariga qiziqish tobora ortib boryapti. Jumladan, 2024-yilda qoraqalpog'istonlik 11 sportchi O'zbekiston terma jamoasiga qabul qilingan edi. Bu ko'rsatkich 2025-yilda 16 nafargacha yetdi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

